

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA SOG'LOM OVQATLANTIRISHNI TASHKIL QILISHDA AUTSORSING TIZIMINING O'RNI

*Xodjayeva Barno Dalvoyevna*

*Toshkent shahar Mirobod tumani*

*389-eksperimental davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishni yanada takomillashtirish, bu borada autsorsing tizimining imkoniyatlarini va sog'lom ovqatlanishning innovatsion usullarini amaliyotga joriy etish bo'yicha takliflarni asoslab berish, shuningdek ovqatlanishning ta'lim-tarbiyadagi o'rnini, tarbiyalanuvchilar organizmida yetishmaydigan ayrim mineral va vitaminlarning vazifalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib berilgan.

**Kalit so'zlar:** sog'lom ovqatlanish, jismoniy rivojlanish, aqliy rivojlanish, kamqonlik, ovqatlanish taqchilligi, vitaminlar, minerallar, oqsillar.

**Annotation:** In this article, further improvement of the organization of healthy nutrition in state preschool educational organizations, in this regard, the possibilities of the outsourcing system and proposals for the introduction of innovative methods of healthy nutrition into practice, as well as the role of nutrition in education, The tasks of some minerals and vitamins that are lacking in the body of the students are analyzed from a scientific and theoretical point of view.

**Key words:** healthy nutrition, physical development, mental development, anemia, nutritional deficiency, vitamins, minerals, proteins.

O'zbekistonda davlat sektoriga autsorsing faoliyatini olib borishda huquqiy asoslar yaratilib kelinmoqda. Bunga ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatining bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish asosiy vazifa qilib belgilanganligidan kelib chiqqan holda bu va boshqa sohalar misolida autsorsingning davlat sektorida qo'llashning afzalliklariga to'xtalib o'tiladi.

Autsorsingning davlat sektorida qo'llashda ijtimoiy xizmat darajasining keskin pasayishiga yo'l qo'yimaslik choralari ko'riladi, inson uchun o'ta muhim, yuqori kaloriyali oziq-ovqat iste'moli tarkibi takomillashtiriladi, inson genofondini saqlash uchun homilador ayollar va bolalarning ovqatlanish ratsioni bo'yicha amaldagi me'yorlarni xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqilishiga olib keladi.

Bundan bir necha yillar ilgari «autsorsing» mexanizmi faqat xususiy sektorda foydalanilgan bo'lsa, bugungi kunda budjet tashkilotlarida ham ijtimoiy xizmat ko'rsatishda «autsorsing»dan unumli foydalanilmoqda.

Autsorsing (outsourcing) – tashkilotning u yoki yoki funksiyalarini shu faoliyatni olib borishga ixtisoslashgan tashqi ijro etuvchilarga berishdir. Boshqacha qilib aytganda, autsorsing deganda, davlat sektorining nodavlat sektordan tovarlar, ishlar va xizmatlar sotib olishining umumiy hajmi tushuniladi.

Davlat muassasalarida autsorsing usulida ovqatlantirish «Davlat xaridlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tarkibi tasdiqlanadigan Tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladigan tanlov asosida tashkil etiladi.

O'zbekistonda xususiy sektorda yaxshi tajribadan o'tgan zamonaviy mexanizm va uslublarni budjet xizmati ko'rsatilayotgan ijtimoiy sohalarida qo'llanishi, davlat sektorida autsorsing usulini joriy etishda xarajatlarning tejalishi va xizmat sifati yaxshilanishining muhim ahamiyatga egaligi, davlat sektori muassasalarida misol uchun sog'lom ratsional va xavfsiz ovqatlanishni tashkil etilishini takomillashtirish, keytring (yuqori darajada umumiy ovqatlanish), ularning kombinatlari kabi zamonaviy usullardan foydalanilish, autsorser bilan davlat muassasalari o'rtasida autsorsingga oid shartnomalar tuzilishiga huquqiy asoslarning

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

mavjudligi, ijtimoiy sohada autsorsing asosida xarajatlarning natijadorligi autsorsingdan foydalanishning afzalliklari bo'lib hisoblanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish ishlarini yanada takomillashtirish, belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq holda ovqatlantirishni tashkil etish orqali bolalarning sog'lom va barkamol o'sishini ta'minlash, sog'lom ovqatlantirishning zamonaviy usullarini joriy etgan holda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 9 sentabrdagi PQ-3261-son qarorining 3-bandiga muvofiq Toshkent shahrida joylashgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan tayyor ovqatlarni yetkazib berish bo'yicha eksperiment o'tkazildi. Eksperiment jarayonida 60 nafar tadbirkor va 266 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti ishtirok etib, jami 63760 nafar tarbiyalanuvchini autsorsing usulida (maktabgacha ta'lim tashkilotiga tayyor ovqat yetkazib berish yo'li bilan) ovqatlantirish tashkil etildi.

Eksperiment jarayonida tarbiyalanuvchilarning ishtirok etgan 3358 nafar ota-onasi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, 2921 nafar (87%) ota-onalar autsorserlar tomonidan tayyorlagan taomlarga ijobiy baho berdi.

Bundan ko'rinadiki bolalarning jismoniy hamda ruhiy, aqliy jihatdan normal rivojlanishi uchun ovqatlanishni to'g'ri tashkil etish katta ahamiyatga ega. Ovqat yetishmovchiligi bolaning o'sib rivojlanishini kechiktiradi, organizm qarshiligini susaytirib qo'yadi. Me'yoridan ortiqcha ovqat esa modda almashinuv jarayonlarini ishlab chiqarib ishtahani pasaytiradi va ovqat hazmini buzadi. Albatta yuqoridagi masalalardan kelib chiqqan holda bolani to'g'ri ovqatlanishi uchun Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autsorserlar tomonidan tayyorlagan taomlarni irrtensivlashtirish bugungi kunning o'ta muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishning maqsadi tarbiyalanuvchilarning sog'lom va barkamol o'sishini ta'minlash, oshxonalarda sifatli taomlar tayyorlash, taomlarni iste'mol qilish uchun gigienik talablarga muvofiq sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar to'g'ri ovqatlantirilib borishi uchun tarbiyalanuvchi yoshiga qarab oqsillar, yog'lar, uglevodlar va vitaminlarga bo'lgan fiziologik ehtiyojlarni, shuningdek asosiy oziq-ovqat moddalari o'rtasidagi me'yorning to'g'ri bo'lishini hisobga olish kerak. Tarbiyalanuvchilar ayniqsa bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davrida ovqat almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalarga boy bo'lishi zarur. Tarbiyalanuvchilarda to'g'ri ovqatlanish madaniyatini shakillantirish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi. Bunga sabab bola ornanizmi uchun kerakli bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarni iste'mol qilish, bolalarning ham jismoniy ham aqliy jihatdan rivojlanishiga, ularning mashg'ulotlarni o'zlashtirishga yaxshi ta'sir qiladi. Shuning uchun albatta bola organizmida yoshiga qarab barcha vitaminlar, minerallar yetarli miqdorda bo'lishi muhim. O'zbekistonda oziq-ovqat taqchilligi ko'plab bolalar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda. Ba'zi viloyatlarda bo'y o'sishining orqada qolish ko'rsatkichi 15 foizdan oshib ketgani bunga misol bo'la oladi. Shu bilan birga, temir, yod va boshqa mikroelementlarning yetishmovchiligi hanuzgacha bolalar va o'spirinlar hayotiga jiddiy xavf solmoqda. Temir va boshqa mikroelementlarning yetishmasligi bilim olishga sog'lig'iga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Darhaqiqat, ular ta'lim kabi boshqa tizimlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin, chunki mikroelementlarning yetishmasligi bilim olish qobiliyatini kamaytiradi.

Bolalarda kuzatiladigan kamqonlikning kuyidagi sabablari mavjud: bolani uzoq vaqt davomida faqatgina ona yoki sigir suti bilan ovqatlantirish; o'z vaqtida bolaning ovqat o'lchamiga turli meva va poliz mahsulotlari kiritilmaganligi, xususan, go'sht, jigar kabi

mahsulotlarni bolaning yoshiga qarab berilmagani organizmda modda yetishmovchiligni keltirib chiqarmoqda. Bolada me'yorida qon hosil bo'lib turishi uchun kuniga 1-1,5 mg temir mikroelementi qonga so'rilsa, yetarli bo'ladi. Bu ko'rsatkich bola tez o'sadigan davrlarda (maktabga borish, voyaga yetish davrlarida) ancha yuqori bo'ladi.

Yana bir muhim bo'lgan masala bola organizmda yod yetishmovchilik kasalliklari (YEK) dunyoning ko'p mintaqalarida sog'liqni saqlash tizimidagi muhim muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Hozirgi vaqtda yod yetishmovchilik kasalliklari aholi o'rtasida yuqumsiz kasalliklar orasida eng keng tarqalgan xastaliklardan biri hisoblanadi. Bunday holat bolalarning psixik va jismoniy tomondan rivojlanishini susayishiga sabab bo'ladi, bu esa o'z navbatida ularning immuniteti va reproduktiv salomatligiga ta'sir qilib, yod yetishmovchi kasalliklariga olib keladi.

Temir va boshqa mikroelementlar yetishmovchiligini bartaraf etish uchun asosli, samarali strategiyalarni ishlab chiqib, amaliyotga joriy etish zarur. Bolalar va onalarning oziqlanish sifatini oshirish, ularning oziqlanish holatini yaxshilashga davlat hokimiyati jiddiy nazoratga olishi lozim. Ushbu aralashuv imkon qadar erta, ayniqsa bola hayotning dastlabki 1000 kunida, homila vaqtidan to 2 yoshgacha bo'lgan davrda foydali bo'ladi. Bunga ko'p tizimli ishlarni bajarish sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, ta'lim va ijtimoiy himoya tizimlari, shuningdek suv, sanitariya va gigiena va oziqlanish sohasidagi boshqaruvni takomillashtirish orqali erishish mumkin.

Sog'liqni saqlash tizimi hayotning birinchi 1000 kunida e'tiborni birlashtirgan holda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami orqali oziqlanish bo'yicha maslahat berish sifati va qamrovini oshirishi kerak. Qishloq xo'jaligi ekinlarni diversifikatsiyalashga, shu jumladan kam ishlatiladigan an'anaviy ekinlarni, ko'proq meva va sabzavotlarni yetishtirishga va hayvonlarning oqsil manbalarini tegishli ravishda ishlab chiqarishi yordam berishi kerak. Oziq-ovqat tizimi, tarkibida shakar mavjud ichimliklarni cheklashi va sog'lom bo'lmagan oziq-ovqat mahsulotlari sotuvini tartibga solishi kerak.

Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

tarbiyalanuvchilarning belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq holda ovqatlanishni tashkil etish;

tarbiyalanuvchilarni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash;

oziq-ovqat mahsulotlari hamda taomlarning xavfsizligi va sifatini kafolatlash;

tarbiyalanuvchilarda ovqatlantirish bilan bog'liq yuqumli kasalliklarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik;

tarbiyalanuvchilar o'rtasida sog'lom ovqatlantirish ko'nikmalarini shakllantirish;

taomlarni tayyorlashda, oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilish hamda saqlashda sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga qat'iy rioya qilish lozim.

Bugun O'zbekistonda yashayotgan o'rtacha har bir yettinchi bolada kamqonlik kuzatilyapti. Ushbu kasallikka oid eng yuqori ko'rsatkichlar 6-11 oylik bolalar orasida kuzatilib, ular katta bo'lgani sari ko'payib boryapti. Shahar yoki qishloq joyda istiqomat qilishi, qaysi hududda yashashi, jinsiy mansubligi, uy xo'jaligining farovonlik darajasi va onaning ma'lumoti kamqonlik ko'rsatkichlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Kamqonlik holatlarining taxminan 75 foizi temir tanqisligi sababli rivojlanib boradi. Besh yoshgacha bo'lgan bolalar orasida temir moddasi tanqisligi xavotirga soladigan yuqori darajada kuzatilmoqda. Temir moddasining yetishmasligi, hatto kamqonlikni yuzaga keltirmagan holatda ham, bolalarning kognitiv rivojlanishida kechikishlarga olib kelishi mumkin.

O'sish va rivojlanishdagi izdan chiqishlar yaxshi ovqatlanmaslik, takroran infeksiyaga chalinish yoki psixologik-ijtimoiy rag'bat yetarli darajada bo'lmaganligi sababli yuzaga kelishi ham mumkin. Ba'zan o'sishning orqada qolishi oqibatida atrofdagi olamni o'rganish va ta'lim

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

olish qobiliyating pasayishi, ulg'ayganda kam ish haqi to'lanadigan ishda ishlashi, mehnat unumdorligining pasayishi kuzatiladi.

Xulosa sifatida biz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirish borasida quyidagilarni taklif qilmoqchimiz:

Birinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish yuzasidan doimiy monitoring olib borish, jumladan, tarbiyalanuvchilarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasini tahlil qilib borilsa maqsadga mavofiq bo'lar edi.

Ikkinchidan, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini to'liq outsorsing tizimiga o'tkazish va bu borada outsorchilar o'rtasidagi sog'lom raqobatni shakllantirishda ko'proq davlat subsidiyasini jalb qilish lozim.

Uchinchidan, hududiy mahalliy davlat hokimiyati organlariga davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (outsorsingga o'tmaganlari) oshxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqib doimiy takliflar kiritib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

To'rtinchidan, hududiy sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bo'limlari tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari oshxonalarida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlari hamda sanitariya-gigiena va epidemiyaga qarshi tadbirlarning bajarilishiga rioya qilinishi yuzasidan nazorat ishlari amalga oshirishda ortiqcha byurakratik usulardan voz kechishni amalga oshirish va bu borada davlat nazoratini kuchaytirish talab etiladi.

Beshinchidan, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida outsorsing asosida faoliyatini boshlagan tadbirkorlarga ortiqcha buyurakratik va moliyaviy to'siqlarni qo'llamaslik lozim. Chunki har qanday tadbirkorga avvalombor, erkin ish sharoitini yaratib berish lozim.

Oltinchidan, kuzatuv kengashining davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlanish borasidagi maqomini va nazoratini doimiy takomillashtirib borilsa biz o'ylayotgan va umid qilayotgan kelajagi buyuk davlatning barkamol farzandlarini ham ma'nan, ham jismonan kamolga yetkazgan bo'lamiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 9 sentabrdagi PQ-3261-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyuldagi «Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» 626-son qarori.